

BUGUNGI KUNDA YURTIMIZDA INFLYATSIYANI OPTIMAL HOLATGA KELTIRISH QAY DARAJADA DOLZARB?

Diyorov Nodir Ziyodullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

nodirdiyorov86@gmail.com

+998945370967

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10910953>

Annotatsiya: Ushbu maqolada inflyatsiyani keltirib chiqaradigan asosiy sabablar, ushbu atamaga turli xil maktab vakillari qanaqa munosabatda bo'lishganligi haqida, inflyatsiya faqatgina narx qiymatini ko'rsatishdan tashqari iqtisodiyotda yana qanaqa vazifani bajarishi, inflyatsiyaga nima uchun shu darajada e'tibor qaratish lozimligi va hukumat ushbu muammoga qanday yondoshmoqda, qanday chora-tadbirlar ko'rmoqda va ko'rishi kerakligi haqidagi savollarga javobni ushbu maqola orqali javob topishingiz mumkin.

Kalit so'zlar. Inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, keynschilar, neoklassik maktab vakillari, iste'mol savati, barometr, defitsit, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

Аннотация. В этой статье рассмотрены основные причины инфляции, как трактовали этот термин представители разных научных школ, какие еще функции выполняет инфляция в экономике помимо простого показа стоимости цен, почему инфляции следует уделять так много внимания и как Правительство может справиться с этой проблемой. Ответы на вопросы о том, какие меры принимаются и должны быть приняты, вы можете найти в этой статье.

Ключевые слова. Инфляция, инфляция спроса, инфляция предложения, кейнсианцы, представители неоклассической школы, потребительская корзина, барометр, дефицит, Кабинет Министров Республики Узбекистан.

Abstract. In this article, the main causes of inflation, how representatives of different schools of thought have treated this term, what other functions inflation performs in the economy besides just showing the value of prices, why inflation should be given so much attention, and how the government can deal with this problem. You can find answers to the questions about what measures are being taken and should be taken through this article.

Key words. Inflation, demand inflation, supply inflation, Keynesians, representatives of the neoclassical school, consumption basket, barometer, deficit, Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.

Inflyatsiya – umumiy narxlarning oshishi natijasida pulning xarid qilish qobiliyati pasayishidir. Umumiy narxlar deganda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida tovarlarning narxi oshishi nazarda tutiladi. Yuqorida aytilganidek narxlarning umumiy darajasi oshishi, pulning qadrsizlanishiga olib keladi. Pulning qadrsizlanishi deganda, ma'lum bir miqdordagi pulga ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin kamroq tovar sotib olish nazarda tutiladi.

“Inflyatsiya” atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi **Fuqarolar urushi** davrida qo'llanildi. Inflyatsiya atamasida muomaladagi qog'oz pul massasining real tovarlar taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holati izohlangan. Ammo inflatsiyaning

bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda, inflatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilish shakli sifatida makroiqtisodiy muvozatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi. Bu bo'layotgan jarayonlarga turli xil maktab vakillari o'z qarashlarini aytib o'tgan. Jumladan, **Keynschilar** maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababini to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod ko'p bo'lishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo'lsa, byudjet taqchilligi va qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda, yalpi talabni ko'paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi, deb hisoblashishadi. Shu bilan birga, **Neoklassik** yondashuv tarafdorlari esa inflyatsiyaning manbaini ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondashadilar. ¹

Inflyatsiyani kelib chiqish sababiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

1. Talab inflyatsiyasi
2. Taklif inflyatsiyasi

Talab inflyatsiyasi - Inflyatsiyaning bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyotda pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalarni shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxlari o'sadi.

Taklif inflyatsiyasi - Inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi.

Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi uchta ta'sir. Bular:

1. Pul massasining o'sishi
2. Pul aylanish tezligining o'sishi
3. Ishlab chiqarish hajmining pasayishi

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmi kasalligi, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uchta belgisi ham bor. Bular:

1. Valyuta kurslarining o'zgarishi
2. Kredit berish shartlarida qimmatlashuv va muddatlarning qisqarishi tomon o'zgarishlar
3. Kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati bahosining o'sishi

Inflyatsiya atamasining kelib chiqish sabablari, unga bo'lgan turli maktab vakillarining turli yondashuvlari va shunga o'xshash jihatlarini ko'rib chiqdik.

Hozirgi vaqtda yurtimizda yaqin yillardan beri inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. 2019-yilda inflyatsiyani 2021-yilning oxirigacha **10%** ga, 2023-yilning oxirigacha esa **5%** ga pasaytirish bo'yicha Markaziy bank o'z oldiga strategik maqsad qo'ygan edi. 2021-yil inflyatsiya darajasi **10-11%** atrofida bo'lgan holda qo'yilgan maqsad bajarildi. Lekin 2023-yil oxirigacha qo'yilgan maqsad ado etilmadi. Bunga

asosiy sabab sifatida, “Jahonda ayrim tovar va xizmatlarning narxi oshishi, misol uchun, yoqilgʻi-energetika sohasida sezilarli darajada oʻsish boʻlganligi va albatta bu bizni yurtimizga ham oʻz taʼsirini koʻrsatmasdan qolmadi” – deb taʼkidlab oʻtdi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Pul-kredit siyosati departamenti direktori - **Achilov Nodirbek Muxammadiyevich**.²

Koʻpchilikda usbu boʻlayotgan jarayonlarni kuzatgan holda bir savol tugʻilishi mumkin. Yaʼni, nima uchun **narx** davlat tomonidan muzlatib qoʻyilmaydi? Axir inflatsiyani oshishini shu orqali bartaraf etolmaymizmi kabi. Bunga javob sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu ishni amalga oshirmaslikka bir qancha sabablar mavjuddir. Bular:

1. Agar narx muzlatilsa biznes signallar yoʻqolishiga sabab boʻlishi mumkin. Yaʼni tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilar uzoqroq strategik reja qilishi uchun qaysidir maʼnoda kutilmalarga tayanadi va bu biznes uchun muhim sanaladi.
2. Biz bilamizki, iqtisodiyot doimo dinamik holatda ishlaydi, doimo oʻzgarishda boʻladi. Shu sababli biz bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan davlat boʻlganligimiz uchun, tovar va xizmatlarni muayyan narx bilan chegaralash mushkul jarayondir. Bu jarayon **SSSR** davridagi rejali iqtisodiyotga xos jarayon edi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Buning oqibati nimalarga olib kelganligini **SSSR** ning parchalanib ketish holati yaqqol misol boʻla oladi.
3. Defitsitga sabab boʻladi. Buni ham yaqqol misolini Sobiq ittifoqdagi mustamlaka boʻlgan davrimizda guvohi boʻlganmiz. Yaʼni tovarlar roʻyxatda bor, lekin bozor rastalarida esa topish qiyin.
4. Asosiy sabablardan biri – tovar va mahsulotlarning sifatida pastlash sodir boʻlishi mumkin. Chunki yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek iqtisodiyot oʻzgaruvchan jarayonlardan iborat. Shuni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalari ham **dinamik** holatlarga tayangan holda rivojlanadi. Ana oʻsha rivojlanish bilan birga pasayish ham kuzatiladigan muhitda tadbirkor yetarlicha foyda ololmasligi, balki xarajatini ham chiqarib ololmasligi mumkin. Shunda tadbirkor narxni koʻtarolmaydi va natijada mahsulotlarini sifatini pasaytirish orqali foyda olishi yoki juda boʻlmaganda xarajatlarini qoplash imkoniga ega boʻlishi mumkin.

Hozir yurtimizda inflyatsiyani optimal holatga keltirish boʻyicha davlatimiz tomonidan qanaqa chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligini aytishimizdan oldin, oʻzi nafaqat yurtimizda balki jahon miqyosida ham inflyatsiyani pasaytirish yoki optimal holatga olib kelish shu darajada dolzarb, shu darajada muhim masala ekanligini tushunish uchun quyidagi sabablarni keltirib oʻtmoqchiman.

1. Agar inflyatsiya optimal holatga keltirilsa oʻsha davlat aholisining choʻntagida ortiqcha pul qolishiga sabab boʻladi. Natijada bu aholining oʻz imkoniyatidan kelib chiqqan holda jamgʻarishga moyilligini oshiradi. Albatta bu jamgʻarishdan banklar ham minnatdor hisoblanadi.
2. Bugungi kunda nafaqat bizni yurtimizda balki butun dunyoda tadbirkorlikka yaxshigina eʼtibor qaratilmoqda. Shu sababli, inflyatsiyaning eng maqbul holatga kelishi tadbirkorlar yuqorida aytilganidek, uzoq muddatli rejalar, strategiyalar tuza oladi. Yaʼni kutilmalar ehtimollikining reallikka yaqinlik ulushi yuqoriroq boʻladi.
3. Inflyatsiyaning pasayishi yoki uzoq vaqt davomida sezilarli oʻzgarishlarsiz turishi narx barqarorligini vujudga keltiradi. Tabiiyki, narx barqarorligi yuzaga kelishi chet eldagi investorlarni bizga boʻlgan qiziqishini oshiradi. Yaʼni ularning bizga boʻlgan **ishonch**

koefitsiyenti yuqori darajada bo'ladi. Eng asosiysi bu orqali yurtimizdagi iqtisodiy ko'rsatkich raqamlarini ham ko'tarib olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Bugungi kunda yurtimizda inflyatsiyani pasaytirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bular:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan **ta'rif** va **nota'rif** cheklovlarni pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Misol uchun, ayrim tovarlarga nisbatan import ta'riflari va bojxona cheklovlari pasaytirildi. Shu bilan birga oziq-ovqat importiga imtiyozli kreditlar ajratildi

2. Iste'mol savatidagi mahsulotlarni ayniqsa meva-sabzavotlarni qishloq xo'jaligida hosildorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar

3. Raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar

Inflyatsiya narxni qiymatini ko'rsatishdan tashqari, iqtisodiyotda **barometr** vazifasini ham o'taydi. Ya'ni yalpi talab va yalpi taklif hajmi bir-biri bilan moslashuvchanligini ko'rsatadi. Buni yana ham tushunarli qilishga qaratilgan jumla quyidagicha: " Erkin bozor sharoitida valyuta kursining o'zgarishiga iqtisodiyotning **barometri** sifatida qarash lozim. Biz barometr ko'rsatayotgan haroratga moslashishimiz mumkin, xolos. Agar u ko'rsatgan harorat yoqmasa, barometrni buzib tashlay olmaymiz. O'zbekiston hukumati valyuta kursidagi tebranishlarda fiskal muvozanatni qat'iylashtirish, tashqi ta'sirlarni minimallashtirish orqaligina rol o'ynashi mumkin ".³

Yuqorida asosiy fikrni inflyatsiyani pasaytirishga qaratdik. Lekin shuni ham inobatga olish kerakki, inflyatsiyaning haddan ziyod pasayishi iqtisodiyot uchun yaxshi jarayon emas. Bu holat aholining ijtimoiy faolligini pasaytiradi, ular o'ylaydiki narx bugun past bo'lsa, demak ertaga yana pasayadi yoki shuni teskarisi kabi. Va natijada tovarlarning iste'moli sekinlashadi, shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishda ham kechikish holati yuz beradi. Shu sababli inflyatsiya darajasini o'z me'yorida (rivojlanayotgan davlatlar uchun 4-5%) ushlab - eng optimal yechimdir.

References:

1. Makroiqtisodiyot o'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 36-38 betlar. Toshkent. 2005
2. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>
3. <https://kun.uz/uz/51627383>
4. <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/concept-of-inflation/>
5. <https://erohovastitch.ru/uz/chernobylcam/inflyaciya-prichiny-e-vozniknoveniya-i-vidy-socialnye-posledstviya.html>